PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

TIMSS XALQARO TATQIQOTINING YOSHLAR TA'LIM – TARBIYASIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Po'latova Noila
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi
noilapolatova883@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20046299

Annotatsiya: Ta'lim sohasida yangi natijalarga erishish, o'quvchilarning bilim salohiyatini oshirish hamda uni hayotda qo'llay bilish layoqatini orttirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada TIMSS xalqaro baholash dasturi hamda tadqiqot natijalari yoritib berilgan. TIMSS xalqaro baholash dasturida o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifati solishtiriladi hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlar aniqlanadi.

Kalit so'zlar: TIMSS, matematika va tabiiy fanlar, bilim va natija, kreativ fikrlash, xalqaro tadqiqot, ijodkorlik, metod.

Abstract : Achieving new results in the field of education, increasing students knowledge and developing their ability to apply it in life, is one of the priority tasks. This article discusses the TIMSS international assessment program and research results. The TIMSS international assessment program compares the level and quality of students knowledge in mathematics and science and identifies differences in national education systems.

Keywords: TIMSS, mathematics and natural sciences, international research, knowledge and results, creative thinking, creativity, method.

Kirish: Bugungi kunda yoshlarning har tomonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetishi, bilim va ko'nikmalarini hayoti davomida qo'llay bilishi, kreativ fikrlash hamda ijodiy yondashish salohiyati shakllanishi borasidagi keng chora-tadbirlar ko'rilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining " Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son Qarori bilan xalqaro baholash dasturlari, xususan, PIRLS, TIMSS, PISA va boshqa dasturlar bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilab qo'yildi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. [1]

Ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirish o'quvchi yoshlarning egallagan bilimlari asqotishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili: TIMSS (inglizcha: Trends in international mathematics and science study) – 4-va 8- sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish sifatini xalqaro monitoring qilish va baholash dasturi bo'lib, tadqiqot ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi – IEA tomonidan tashkil etiladi. TIMSS dasturi o'zining 1- tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo'lib , har 4 yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015, 2019, 2023 – yilda tashkil etilib kelinmoqda.

Oxirgi 2023-yildagi tadqiqotda O‘zbekiston ilk bor ishtirok etdi. Natijalar tahliliga ko‘ra tadqiqotda qatnashgan O‘zbekistonlik 4-sinf o‘quvchilari tabiiy fanlar savodxonligi bo‘yicha 412 ballni qo‘lga kiritganlar va bu ko‘rsatkich bilan qatnashuvchi 58 ta davlat ichida 54- o‘rinni qayd etgan. Matematika savodxonligi bo‘yicha qatnashuvchi 58 ta davlat ichida 443 ball bilan 50-o‘rinni egalladi.

TIMSS xalqaro baholash dasturida o‘quvchilarning nafaqat bilimlari darajasi va sifati baholanadi, balki shu bilan bir qatorda maktablarda o‘quv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyati, o‘qituvchi salohiyati hamda o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq omillar ham o‘rganiladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim olishlari uchun zarur bo‘lgan imkoniyat va sharoitni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon so‘rovnoma o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. So‘rovnomada o‘quvchilar ota-onalarining ishtiroki bilim olish darajasining oshishiga turtki yaratadi. O‘quvchilarga nafaqat maktab sharoitida, balki oila muhitida ham qulay muhit va sharoit yaratish ularning mustaqil faoliyatida imkoniyatlarining oshishiga yordam beradi va samaradorlikni yaxshilaydi. 2023-yildagi tadqiqotda barcha hududlardan tanlab olingan 166 ta maktabdan jami 8800 nafar o‘quvchilar ishtirok etishdi. Shuningdek, mazkur maktablarning 166 nafar direktorlari hamda 1035 nafar matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilar so‘rovnomalarda qatnashdi.

Mamlakatimizning ham ushbu tadqiqotda ishtirok etishi ta’lim sohasida yangidan-yangi o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar doirasida tushunchalarini kengaytirish, mantiqiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish kabi masalalarda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish, ta’lim sohasida xorijiy tadqiqotlarni tatbiq qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada o‘qituvchining kasbiy faoliyati hamda layoqati muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘z faoliyatida interfaol metodlardan, jumboqli topshiriqlardan foydalanishi zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqishi, o‘qishga bo‘lgan intilishi o‘qituvchining dars o‘tish usuli hamda dars jarayonini tashkil etish qobiliyatiga bog‘liq. Pedagogning o‘z kasbiga bo‘lgan sadoqati, mehri va ishtiyoqi dars sifatini baholab beruvchi muhim omillaridir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish matematika hamda tabiiy fanlar doirasida kengroq fikrlash, mulohaza yuritish hamda xulosa chiqara olish ko‘nikmalarining rivojlanishiga turtki yaratadi. Matematika fanini chuqur o‘rganish o‘quvchilarda qat’iyatlilikni shakllantiradi, atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mantiqan yondashishga harakat qiladilar. Tabiiy fanlar ham bizni o‘rab turgan olam, tabiat birlashmasidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida aynan bu sohaga qiziqish ustun hisoblanadi. Yer, sayyora, tabiat, hayvonot dunyosi, o‘simliklar haqida qanchalik ko‘p ma’lumotlar berilsa, o‘quvchilar yanada ko‘p bilishni xohlaydi, savollar berib o‘z qiziqishlarini bildirishadi.

Pedagog bu jarayonda o‘quvchilar fikrini tinglashi hamda berilgan savollarga to‘g‘ri va aniq javob bera olishi lozim. O‘z fikrini mustaqil bayon etgan o‘quvchilar darsda erkinlikni his qilishadi, shuningdek ular faol ishtirok etishga harakat qiladilar. Tabiiy fanlarni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchilar hozirgi kunda global muammoga aylanib borayotgan ekologiyaga nisbatan befarq qarashmaydi. Ularda ona yurtga nisbatan mehr-muhabbat, sadoqat, faxr tuyg‘ulari shakllanib boradi. Dars jarayonida noan’anaviy dars usullaridan, metodlardan foydalanish o‘quvchilarda kreativlikni , ijodkorlikni hamda ishonch tuyg‘usini shakllantiradi.

Kreativlik insonning fikrlash qobiliyatini yanada kengaytiradi. Aytishimiz mumkinki, kreativlik qobiliyati takomillashgan o‘quvchilar izlanuvchanlik, mas’uliyat, o‘zaro hurmat kabi ezgu fazilatlar sohibi hisoblanadi. Dars samaradorligi ham ushbu ezgu fazilatlar asosida tarkib topadi hamda mustahkamlanadi. Kreativlikni, ijodkorlikni odatga aylantirish o‘qituvchi faoliyati asosida

ta’minlanadi. O‘qituvchi sinf jamoasida ijodkorlikni rag‘batlantirish, o‘quvchi shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, bildirilgan fikrga samimiy munosabat kabi xususiyatlarni tarkib toptirishi muhim. O‘quvchilar darsda o‘z fikrlarini mustaqil bildirib o‘tishi natijasida o‘zgalar fikriga tobe bo’lish va tavakkalchilikdan qochish kabi xarakterlari yo‘qolib boradi. Matematika va tabiiy fanlar sohasida mustaqil fikr yuritish va qat’iyatlilik, dalillar orqali asoslab berish shaxsning hayotda ham o‘z o‘rnini topish va mulohazali qaror qabul qilish salohiyatini takomillashtiradi.

Matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar tizimida, umuman olganda, o‘quv jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bugungi kun talabi va zaruriyati hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi asosida o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarning chuqur o‘zlashtirilishiga, o‘quvchilarning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga, axborot madaniyatining shakllanishiga zamin yaratadi. O‘quv faoliyatida o‘qituvchining ilmiy salohiyati, o‘z amaliy faoliyatidagi axborot savodxonligi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi mavjud bilim va malakalarini o‘z o‘quvchilariga o‘rgatar ekan, avvalambor, o‘qituvchi o‘z fanini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi, rejali va maqsadli faoliyatni takomillashtirishi va fanlarni o‘zaro hamda tabiat va atrof-muhit bilan bog‘lagan holda takomillashtirishi lozim. Buning natijasida o‘quvchilarga samarali va keng qamrovli dars jarayonini taqdim etadi va o‘quvchilarda qiziquvchanlik va e’tiborlilik ortib boradi.

Xulosa

Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning ishtiroki ta’limda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarni aniqlashga va boshqa davlatlar bilan o‘zlashtirish darajasini solishtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ta’lim sohasida rivojlangan davlatlar tajribalarini o‘rganish hamda joriy qilish samaradorlikni yanada yaxshilaydi. O‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar sohasida bilimini oshirish, tajriba va tadqiqot sinovlarida natijalarini aniqlash dunyoqarashini boyitadi, ularda ijobiy fazilatlar shakllanishiga turtki yaratadi hamda takomillashtiradi. Mustaqil fikr yuritish qobiliyatini shakllantirish orqali obrazli tafakkur doirasi kengayib boradi. O‘quvchilarning bilim va saviyasini har tomonlama boyitib borish natijasida ularda faollik, tezkorlik, to‘g‘ri xulosa chiqarish, mulohazalik kabi bir qator fazilatlar shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “ Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 997-son. 8.12.2018. http://lex.uz
2. Sh.Yuvashov, B.Akbarov “ Kreativ fikrlash “ O‘quv qo‘llanma. Namangan- 2024.
3. S.S.Muxlisov, R.U.Kuchkarbayev, F.X.Xazratov “ Ta’limda axborot texnologiyalari” O’quv qo’llanma. Buxoro-2021.
4. Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Matbuot xizmati.
5. http://Xalqta’liminfo.uz.
6. http://timssandpirls.bc.edu